

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025  
IJTIMOIY  
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|                                                                                    |     |
|------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>N.X.Djalalova</b>                                                               |     |
| Texnologik sivilizatsiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning falsafiy asoslari..... | 104 |
| <b>Sh.T.Abbosova</b>                                                               |     |
| Sun'iy intellekt va ijtimoiy barqarorlikning falsafiy tahlili .....                | 108 |
| <b>U.K.Mamayusupov</b>                                                             |     |
| Jamiyat rivojlanishida strategik rejalashtirishning ahamiyati .....                | 110 |

## SIYOSAT

|                                                                                                                 |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>I.M.Arzimatova</b>                                                                                           |     |
| Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari .....                       | 113 |
| <b>L.S.Yuldasheva</b>                                                                                           |     |
| Diniy an'analar va xalq tabobatining uzviy rivoji: qadimdan islom davrigacha bo'lgan ilmiy-falsafiy tahlil..... | 119 |
| <b>B.N.Eshbekov</b>                                                                                             |     |
| Axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy kommunikatsiya transformatsiyasi .....                                | 123 |
| <b>A.X.Borotov</b>                                                                                              |     |
| Xususiy mulkni himoya qilish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba .....                                          | 127 |
| <b>J.M.Azamov</b>                                                                                               |     |
| Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va Konstitutsiyaviy qonunchilikning rivojlanish marra-lari.....                  | 132 |
| <b>M.Kenjaye va</b>                                                                                             |     |
| Yangi O'zbekiston sharoitida jamoat birlashmalarining tutgan o'rni .....                                        | 137 |
| <b>A.A.Ahrorqulov</b>                                                                                           |     |
| Notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni .....                                       | 141 |

## TARIX

|                                                                                                                     |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>O.V.Mahmudov</b>                                                                                                 |     |
| Musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari .....        | 145 |
| <b>T.T.Safarov</b>                                                                                                  |     |
| Farg'ona viloyatida rus qishloqlarining paydo bo'lishi tarixidan.....                                               | 154 |
| <b>B.X.Abdullayev</b>                                                                                               |     |
| Rahima Aminovanning xotin-qizlar ijtimoiylashuvidagi ilmiy izlanishlari.....                                        | 158 |
| <b>N.M.Ikromov, A.A.Fayziyev</b>                                                                                    |     |
| The exchange of tea and horses in trade relations between China and Central Asia .....                              | 162 |
| <b>Z.Sh.Turg'unboyev</b>                                                                                            |     |
| Badriddin Al-Ayniy va uning Amir Temur haqida qarashlariga umumiy tavsif .....                                      | 166 |
| <b>G.X.Xasanboyeva</b>                                                                                              |     |
| Sovet hokimiyati yillari qishloq xo'jaligida sug'orish tizimining o'rni.....                                        | 171 |
| <b>A.Sharafiddinov</b>                                                                                              |     |
| XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida paxtachilik va paxta yakkaxokimligining vujudga kelishi ..... | 174 |

## ILMIY AXBOROT

|                                                                     |     |
|---------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>M.Y.Sultonov</b>                                                 |     |
| Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi..... | 179 |



UO'K: 123.1:316.42

## SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY BARQARORLIKNING FALSAFIY TAHLILI

## ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И СОЦИАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ

## PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND SOCIAL STABILITY

Abbosova Shohida Turdaliyevna   
Farg'ona davlat universiteti dotsenti

## Annotatsiya

Ushbu maqolada sun'iy intellektning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri, axborot manipulyatsiyasi va mediasavodxonlik masalalari falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Raqamli jamiyatda axborot oqimining keskin ortishi, sun'iy intellekt texnologiyalarining ong va qadriyatlarga ta'siri, hamda mediasavodxonlikni rivojlantirish zarurati ilmiy asosda yoritilgan.

## Аннотация

В данной статье с философской точки зрения анализируется влияние искусственного интеллекта на социальную стабильность, проблемы информационных манипуляций и медиаграмотности. В условиях цифрового общества рассматриваются вопросы резкого увеличения информационных потоков, воздействия технологий искусственного интеллекта на сознание и ценностные ориентации человека, а также необходимость развития медиаграмотности на научной основе.

## Abstract

This article analyzes, from a philosophical perspective, the impact of artificial intelligence on social stability, as well as the issues of information manipulation and media literacy. In the context of the digital society, it examines the rapid increase in information flows, the influence of artificial intelligence technologies on human consciousness and value orientations, and the necessity of developing media literacy on a scientific basis.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, ijtimoiy barqarorlik, mediasavodxonlik, axborot manipulyatsiyasi, raqamli jamiyat, falsafa.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, социальная стабильность, медиаграмотность, информационные манипуляции, цифровое общество, философия.

**Key words:** artificial intelligence, social stability, media literacy, information manipulation, digital society, philosophy.

## KIRISH

Hozirgi davrda sun'iy intellekt (SI) insoniyat taraqqiyotining eng muhim texnologik yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. U nafaqat iqtisodiy, ilmiy va texnologik sohalarida, balki jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy hayotida ham tobora chuqurroq o'rin egallamoqda. Bugungi kunda sun'iy intellekt tizimlari ma'lumotlarni tahlil qilish, algoritmik echimlar ishlab chiqish, o'rganish, xulosa chiqarish, muloqot qilish va ijod qilish kabi faoliyat turlarini amalga oshira oladi [1]. Sun'iy intellektning jadal rivojlanishi axborot oqimlarini boshqarish, ijtimoiy fikrni shakllantirish, siyosiy qarorlar qabul qilish hamda madaniy qadriyatlarni targ'ib etish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, SI va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni falsafiy jihatdan tahlil etish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biridir.

## METODOLOGIYA

Tadqiqotda sun'iy intellektning falsafiy mohiyatini, uning jamiyatdagi axborot jarayonlariga ta'sirini hamda ijtimoiy barqarorlikka bo'lgan ta'sirini tahlil qilishda falsafiy-tahliliy, taqqoslash va kognitiv yondashuv metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, mediasavodxonlik tushunchasi sun'iy intellekt davrida qanday yangi mazmun kasb etayotgani konseptual tahlil asosida ochib berildi [2].

## NATIJALAR

Sun'iy intellekt inson tafakkurini sun'iy ravishda modellashtiradigan murakkab texnologik tizimdir. U inson va texnika o'rtasida ilgari mavjud bo'lmagan yangi ontologik munosabatlarni yuzaga keltirmoqda. Endilikda texnologiyalar mustaqil qaror qabul qila oladigan, o'z mantiqiga ega tizimga

## FALSAFA

aylanmoqda [3]. Bu jarayon inson va mashina o'rtasidagi chegaralarning xiralashuviga olib kelib, tafakkur va ong tushunchalarini yangicha talqin qilish zaruratini tug'dirmoqda. Al texnologiyalari yordamida axborot tizimlari jamoatchilik fikrini o'rganish, siyosiy kompaniyalarni rejalashtirish va iqtisodiy xavflarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi [4]. Ammo bu tizimlar orqali axborot manipulyatsiyasi — ya'ni inson ongiga sun'iy yo'l bilan ta'sir o'tkazish xavfi kuchaymoqda.

## MUHOKAMA

Mediasavodxonlik — bu insonning axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish, ishonchligini baholash va manipulyativ ta'sirlarni aniqlash qobiliyatidir. Sun'iy intellekt davrida bu tushuncha yangi falsafiy mazmun kasb etmoqda, chunki inson endilikda faqat axborot iste'molchisi emas, balki algoritmlar bilan muloqot qiluvchi faol subyektdir [5]. Falsafiy nuqtayi nazardan, mediasavodxonlik bugungi kunda faqatgina kommunikativ yoki texnik ko'nikma emas, balki insonning axloqiy, intellektual va ijtimoiy mas'uliyatini ham o'z ichiga oluvchi murakkab tushunchaga aylanmoqda. Avvallari mediasavodxonlik asosan axborotni izlash, tahlil qilish yoki to'g'ri talqin etish ko'nikmalari bilan bog'langan bo'lsa, hozirgi raqamli jamiyatda u insonning axborot oqimlari oldidagi ongli pozitsiyasini, ya'ni tanqidiy fikrlash, mas'uliyatli axborot tarqatish va ma'naviy yondashuvni talab etmoqda. Har bir inson endilikda faqat axborot iste'molchisi emas, balki uni yaratuvchi, tarqatuvchi va talqin etuvchi subyektga aylangan. Ijtimoiy tarmoqlar, blog platformalari va sun'iy intellekt asosidagi vositalar orqali har kim jamoatchilik ongiga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'ldi. Shu bois, mediasavodli shaxs nafaqat ma'lumotni tahlil qilish, balki o'zining axborot maydonidagi harakatlari uchun ham mas'uliyatni his etishi zarur.

## XULOSA

Sun'iy intellekt insoniyat taraqqiyotiga beqiyos imkoniyatlar yaratish bilan birga, yangi ijtimoiy va axloqiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Texnologiyalar jamiyat ongiga va qadriyat tizimiga kuchli ta'sir o'tkazayotgani sababli, axborot oqimlari ustidan ongli nazorat o'rnatish, manipulyativ ta'sirlardan himoyalaniish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zarur. Sun'iy intellektdan foydalanishda axloqiy me'yorlar, insonparvarlik va falsafiy mas'uliyat tamoyillarini saqlash zamon talabi hisoblanadi. Texnologik taraqqiyot inson manfaatlariga xizmat qilishi uchun uni falsafiy yondashuv asosida boshqarish lozim. Bundan tashqari, sun'iy intellektdan foydalanishda axloqiy me'yorlar, mas'uliyat va insonparvarlik tamoyillarini saqlab qolish zamon talabi hisoblanadi. Texnologik taraqqiyot inson manfaatlariga xizmat qilishi uchun uni falsafiy yondashuv asosida boshqarish zarur. Falsafa bu borada inson va sun'iy intellekt o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi, ma'naviy va nazariy yo'nalishni belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu tarzda, kelajakda texnologiyalar rivoji bilan insoniyatning axloqiy, intellektual va ijtimoiy barqarorligini uyg'un holda ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Floridi, L. The Logic of Information: A Theory of Philosophy as Conceptual Design. Oxford University Press, 2020.-315 b.
2. Bostrom, N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Oxford University Press, 2014.-352 b.
3. Zuboff, S. The Age of Surveillance Capitalism. PublicAffairs, 2019.-525 b.
4. Toffler, A. The Third Wave. William Morrow, 1980.-296 b.
5. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.-400 b.